

## BUXORO VILOYATI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARINING XOSSALARI VA UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI (ShOFIRKON TUMANI MISOLIDA)

**N.X.Hakimova**- BuxDU dotsenti, b.f.f.d (PhD)  
**M.I. Boltaev**-2 bosqich magistr talabasi

**Annotatsiya.** Bugungi kunda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sug'orish ishlarini rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va boshqa meliorativ tadbirdilar dehqonchilikning madaniy saviyasini belgilab beradi. Ushbu maqolada tuproqning sho'rlanish xususiyatiga qarab, mahalliy sharoitni hisobga olib, Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarining mexanik tarkibi, sho'rlanishi va uni oldini olish masalalari atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** melioratsiya, tuproq unumdorligi, sug'orish me'yordi, sho'rlanish, allyuvial, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, sho'rxoklar, grunt suvlari, mineralizatsiya.

Shofirkon tumani hududi, Tuman janubiy qismi asosan tekislik yerlardan iborat, shimoliy qismi esa adirlardan, shimaldan janubga tomon pasayib boradi. Geologik tuzilishi va relefiga, iqlim sharoiti va tuproq-o'simlik dunyosiga ko'ra keskin farq qiladi. Olot tumani hududi cho'l zonasining adirlardan iborat landshaft zonasida joylashgan.

Xududdagi to'lqinsimon keng tekisliklar qadimgi to'rtlamchi davrning turli murakkab yotqiziqlaridan tashkil topgan. Hudud yerlari dengiz sathidan 300-850 m balandlikda joylashgan. Hudud turli darajada sho'rlangan prolyuvial jinslari yotqizilgan, ular turli rangli va gipsli loylardan (soz tuproqlardan), qattiq jinslar qatlamlaridan iborat. Adirlar orasidagi pastqamliklarda sho'rxoklar, ba'zan cho'kindi tog' yotqiziqlar uchraydi.

Tuman xududi murakkab geologik, geomorfologik-litologik, tuproq-iqlim sharoitlari regionda o'ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat

yer usti va yer osti suvlari rejimi va balansi ko'rsatkichlarida o'z aksini topgan. Xududda gidrografik tarmoqlar nihoyatda notejis taqsimlangan.

Tumanda tabiiy va sun'iy kam zovurlashgan tekislik qismi asosiy maydonlarida yerlarni yuqori me'yordarda sug'orish va boshqa bir qator omillar grunt suvlarining yer yuzasiga ko'tarilishiga imkon yaratmoqda, bu holat o'z navbatida tuproqda tuz to'planish va qayta sho'rlanish jarayonlari kelib chiqmoqda. Yer osti suvlari sathining davriy ravishda tebranib turishi yil fasllari bo'yicha o'zgarib, hududlarda murakkab hidrogeologik jarayonni keltirib chiqargan. Tumanning shimoliy chul hududlariga tutash yerlarda yer osti suvlarining sathi 2-3 m va undan ortiq chuqurlikda kuzatilsa, tekislik qismining asosiy maydonlarida 1,5-2 metr atrofida kuzatiladi, vegetatsiya davrida 2 m gacha ko'tariladi, mavsumiy tebranish amplitudasi 1,0-1,5 metrni tashkil etadi.


Buxoro viloyati hududidagi geomorfologik, litologik, hidrogeologik va iqlim sharoitlarining o'zaro ta'siri, hududda tuproq hosil bo'lish jarayonlarining turli yo'nalishlarini sodir etgan bo'lib, Shofirkon tumani sug'oriladigan yerlari asosan sug'oriladigan o'tloqi, cho'l utloki, taqir o'tloqi hamda sur tusli qo'ng'ir tuproqlar tuproqlar tarqalgan.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar barcha massivlarida tarqalib, og'ir, o'rta, yengil qumoqli va qumloqli mexanik tarkibdan iborat. Tumandagi barcha sug'oriladigan tuproqlar gipslashmagandir.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar respublikani sug'oriladigan yer fondida eng keng tarqalgan tuproqlar hisoblanadi. Bu tuproqlarning morfologik kesimida kalinligi 28-32sm li xaydalma qatlama ajraladi. Mexanik tarkibiga ko'ra, u turlichu og'ir qumoqlardan to qumloqlargacha. Haydov osti qatlami faqat kadimdan sug'oriladigan tuproqlarda hosil bo'ladi, ayrim hollarda og'ir mexanik tarkibli yangidan o'zlashtirilgan tuproqlarda ham, bu qatlamning qalinligi 8-10 sm. U nisbatan yuqori zichliligi va dag'al kesakli strukturasi bilan farqlanadi. Ko'pincha qadimdan sug'oriladigan tuproqlarda agroirrigatsion qatlama ajraladi, lekin u katta

bo‘limgan qalinlikda. Ayrim hollarda gumusli-akkumulyativ qatlam agroirrigatsion qatlam bilan mos keladi, lekin ko‘pincha undan pastga tushadi va 50-60 sm chuqurlikga yetadi. Yangidan sug‘oriladigan tuproqlarda uning qalinligi 40-45 sm gacha chegaralanadi. Bu qatlamlar ostida tuproq hosil bo‘lishi ta’siriga kam uchragan allyuvial yotqiziqlar joylashgan. Ular mexanik tarkibiga ko‘ra, keskin qatlamli xarakterga ega. Kesimning bu qismida zangli va ko‘kimir dog‘lar holidagi hozirgi vaqt loylanish belgilari namoyon buladi.

Yuqorida qayd qilingan tuproqlarning mexanik tarkibiga ko‘ra, 1049,0 ga og‘ir qumoqli, 7150,8 ga o‘rta qumoqli, 6168,8 ga yengil qumoqli, 6463,8 ga qumloqli va 1543,2 ga qumli mexanik tarkibdan iborat ekanligi qayd qilindi (1-rasm).



**1-rasm.** Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tarqalgan sug‘oriladigan tuproqlarining mexanik tarkibi, % hisobida

Yuqorida ta’kidlanganidek, tumanda asosan o‘rta, yengil, og‘ir qumoqli va qumloqli, qisman qumli hamda loyli tuproqlar tarqalgan bo‘lib, 1-jadvalda qayd qilingan Sh.Rashidov nomli massividan olingan 15 va 45 tuproq

kesmalarining kimyoviy tahlil natijalarida ham bir xil o‘rta, yengil va og‘ir qumoqli mexanik tarkibdan iborat ekanligi qayd qilindi.

1-jadvalda qayd qilingan, U.Asadov va Oxunboboev nomli massivlarda tarqalgan tuproq tiplari tarkibida esa yengil, o‘rta qumoqli va qumloqli tuproqlarlar tarqalgan. Masalan, A.Navoiy nomli massivida tarqalgan tuproqlardan olingan 32 kesmaning tahlil natijalariga ko‘ra,  $A_H$ ,  $A_{Hoq}$ ,  $V_1$ , qatlamlari o‘rta qumoqli,  $V_2$  qatlami ham o‘rta qumoqli, huddu shu massivdan olingan 54-kesma ma’lumotlariga ko‘ra esa o‘rta qumoqli va qumloqli tuproqlardan iborat ekanligi qayd qilindi.

Sho‘rlanish sug‘oriladigan yerlar unumдорлиги ва максулдорлиги hamda ekologik-meliorativ holati hisoblanib, bu jarayon joyning (massivlarning) relefi, geomorfologik-litologik tuzilishi, tuproq-iqlim va inson-xo‘jalik sharoitlariga bog‘liq. Ayniqsa, yer osti grunt suvlarining sho‘rlanishining halq xo‘jaligiga yetkazadigan zarari nihoyatda katta bo‘lib, kuchsiz sho‘rlangan yerdarda paxta hosilini 20-30%, o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda 40-60%, kuchli sho‘rlangan yerdarda 80% gacha kamayishi, o‘ta kuchli yoppasiga sho‘rlangan va sho‘rxoklashgan yerdarda esa g‘o‘za nihollari birinchi sug‘orishdayoq to‘la nobud bo‘lishi ko‘p sonli tadqiqotlar va dala tajribalarida o‘z isbotini topgan.

### **1-jadval**

#### **Shofirkon tumani sug‘oriladigan tuproqlarining mexanik tarkibi**

| Kesma №  | Qatlam chuqurligi, sm | Tuproq zarrachalari miqdori % da, o‘lchami mm da |          |          |           |            |             |        |                      | Tuproq       |
|--|-----------------------|--|----------|----------|-----------|------------|-------------|--------|----------------------|--------------|
|  |                       | >0,25  | 0,25-0,1 | 0,1-0,05 | 0,05-0,01 | 0,01-0,005 | 0,005-0,001 | <0,001 | fizik loy (<0,01 mm) |              |
| <b>Sh.Rashidov nomli massivi Sugoriladigan o‘tloki tuproklar</b> |                       |  |          |          |           |            |             |        |                      |              |
| 15   | 0-30                  | 2,0  | 0,5      | 26,6     | 33,3      | 12,1       | 19,5        | 6,0    | 37,6                 | o‘rta qumoq  |
|  | 30-54                 | 2,0  | 0,5      | 27,1     | 30,9      | 13,2       | 19,4        | 6,9    | 39,5                 | o‘rta qumoq  |
|  | 54-84                 | 1,2  | 0,3      | 23,0     | 36,9      | 13,8       | 19,3        | 5,5    | 38,6                 | o‘rta qumoq  |
|  | 84-118                | 0,8  | 0,2      | 19,6     | 33,7      | 16,1       | 21,2        | 8,4    | 45,7                 | ogir qumoq   |
| 45   | 0-28                  | 13,2   | 0,8      | 22,9     | 41,4      | 3,8        | 10,0        | 7,9    | 21,7                 | Yengil qumoq |
|  | 28-56                 | 3,2  | 0,8      | 31,7     | 30,3      | 13,2       | 20,8        | 7,2    | 34,0                 | o‘rta qumoq  |
|  | 56-87                 | 1,6  | 0,4      | 32,4     | 35,2      | 11,3       | 19,1        | 7,0    | 30,4                 | o‘rta qumoq  |

|  |        |      |     |      |      |      |      |     |      |              |
|--|--------|------|-----|------|------|------|------|-----|------|--------------|
|  | 87-114 | 2,0  | 0,5 | 15,7 | 44,4 | 12,8 | 19,3 | 5,3 | 37,4 | o'rtal qumoq |
| <b>U.Asadov nomli massivi Sugoriladigan o'tloki tuproklar.</b>   |        |      |     |      |      |      |      |     |      |              |
| 55   | 0-32   | 12,0 | 3,0 | 19,9 | 26,8 | 13,8 | 16,2 | 8,3 | 38,3 | o'rtal qumoq |
|  | 32-48  | 11,6 | 2,9 | 16,3 | 29,2 | 13,5 | 16,8 | 9,7 | 40,0 | o'rtal qumoq |
|  | 48-76  | 25,6 | 6,4 | 20,0 | 22,2 | 9,7  | 11,7 | 4,4 | 25,8 | Yengil qumoq |
|  | 76-112 | 23,0 | 5,7 | 19,1 | 26,2 | 8,8  | 12,5 | 4,7 | 26,0 | Yengil qumoq |
| 75   | 0-27   | 18,0 | 4,5 | 16,7 | 32,2 | 9,3  | 13,6 | 5,7 | 28,6 | Yengil qumoq |
|  | 27-52  | 17,2 | 4,3 | 27,0 | 19,5 | 10,7 | 17,7 | 3,6 | 32,0 | o'rtal qumoq |
|  | 52-84  | 16,4 | 4,1 | 24,7 | 21,9 | 11,2 | 13,2 | 8,5 | 32,9 | o'rtal qumoq |
|  | 84-110 | 16,4 | 4,1 | 24,7 | 21,9 | 11,2 | 13,2 | 8,5 | 32,9 | o'rtal qumoq |
| <b>Oxunboboev nomli massivi Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar</b> |        |      |     |      |      |      |      |     |      |              |
| 36   | 0-35   | 4,8  | 1,2 | 28,6 | 31,7 | 11,3 | 15,7 | 6,7 | 33,7 | o'rtal qumoq |
|  | 35-74  | 6,8  | 1,7 | 21,5 | 32,6 | 13,7 | 16,4 | 7,3 | 37,4 | o'rtal qumoq |
|  | 74-96  | 4,4  | 1,1 | 25,8 | 33,6 | 12,4 | 16,1 | 6,6 | 35,1 | o'rtal qumoq |
|  | 96-118 | 4,4  | 1,1 | 25,7 | 34,1 | 11,5 | 16,3 | 6,9 | 34,7 | o'rtal qumoq |
| 56   | 0-30   | 11,8 | 2,8 | 29,7 | 25,1 | 19,1 | 7,0  | 4,5 | 39,6 | o'rtal qumoq |
|  | 30-52  | 30,0 | 7,5 | 14,0 | 32,4 | 8,1  | 4,8  | 3,2 | 16,1 | kumlokli     |
|  | 52-82  | 24,0 | 6,0 | 34,9 | 21,1 | 5,7  | 6,2  | 2,1 | 14,0 | kumlokli     |
|  | 82-120 | 18,4 | 4,6 | 40,2 | 23,8 | 7,8  | 2,6  | 2,6 | 13,0 | kumlokli     |

Buning asosiy sababi esa tuproq tarkibidagi zaharli tuzlarning o'simliklarga ko'rsatadigan "toksik" ta'siridir. Shu boisdan ham sug'oriladigan yerlar tuproq-meliorativ holatini baholashda tuproqlarning sho'rlanish darajasi va tiplari, tuproqlarning haydov (0-30 sm) va ildiz qatlqidagi (0-1 m) tuzlarning miqdori (%) va zahira (t/ga) ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, sug'oriladigan yerlarida salbiy meliorativ jarayonlar kuzatilib, yarim gidromorf (o'tloqi) tuproqlar maydoni kengaymoqda, grunt suvlari yer yuzasiga yaqinlashib, sho'rlanish jarayonlari kuchayib bormoqda, ularni oldini olish va salbiy jarayonlarni to'xtatish muammosi asosiy dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullaev S.A. Agrofizicheskaya svoystva i solevoy rejim orощаемых почв oazisov Buxarskoy oblasti. Avtoreferat. kand. diss. Tashkent. 1975. 34 s.
2. Qurvontoev R. Tuproq unumdorligini oshirish usullari. // Tuproq unumdorligini oshirishning dolzARB muammolari ilmiy to‘plam. Toshkent, 1995. - B. 30-33.
3. Nazarova S., Kurvantaev R.-Buxoro viloyati sizot suvlarining sathi va uning o‘zgarishi. //“Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning inovatsion texnologiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Buxoro, 2016.B.242-245.
4. Tojiev U.T., Nafetdinov Sh.Sh. Sistemnye issledovanie diagnostiki, klassifikatsii i struktury pochvennogo pokrova v Respubliki Uzbekistana. 2004. 153159.b 7. Tursunov L. Vodno-fizicheskie svoystva i skorost restavratsii soley v oroshaemyx pochvax Karakulskogo oazisa Buxarskoy oblasti. Avtoreferat. dok. diss. Tashkent. 1968. 30 s.
5. J.S. Sattorov. O‘zbekiston sug‘oriladigan tuproqlari unumdorligi o‘zgarishi, uni oshirish va muhofaza qilish konsepsiysi. “Atrof muhit o‘zgarishi sharoitida yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar. Toshkent. 2016 y. 70 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya, va davlat kadastri davlat qo‘mitasi va “Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti tomonidan ishlab chiqilgan:” Sho‘rlangan yerlarni xaritalashtirish, xisobga olish va sho‘r yuvish me’yorlarini aniqlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma”. 2014 yil. 45-46 betlar
6. U.Norqulov. “Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi”. Toshkent. 2003 y. 21-24 betlar